

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

BERDIYEV G‘OLIB RASHIDOVICH

**QURILISH-ME‘MORCHILIK OBYEKTLARINING MURAKKAB
FRAKTAL TUZILISHLARINI GEOMETRIK MODELLASHTIRISH**

05.01.01- Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va videotexnologiyalari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Berdiyev G'olib Rashidovich

Qurilish-me'morchilik obyektlarining murakkab
fraktal tuzilishlarini geometrik modellashtirish

3

Бердиев Голиб Рашидович

Геометрическое моделирование сложных фрактальных
структур строительно-архитектурных объектов

21

Berdiev Golib Rashidovich

Geometric modeling of complex fractal structures
of building and architectural objects

39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works

43

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

BERDIYEV G‘OLIB RASHIDOVICH

**QURILISH-ME‘MORCHILIK OBYEKTLARINING MURAKKAB
FRAKTAL TUZILISHLARINI GEOMETRIK MODELLASHTIRISH**

05.01.01- Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va videotexnologiyalari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2821 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadullayeva Shaxlo Azimbayevna
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xamdamov O'tkir Raxmatillayevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Nuraliyev Farhod Abdug'aniyevich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «26» may da soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2/274 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «11» may kuni tarqatildi.
(2023-yil «20» aprel dagi 13 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.M. Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

N.O. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.A. Anarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari rivojlanishining afzalliklaridan biri fraktal tuzilishli obyektlarning o'rganilishi deb hisoblash mumkin, ularni tadqiqi so'nggi yillarda rivojlanib, ommalashib bormoqda. Fraktal geometriyaning me'morchilikda qo'llanilishi muhandislik sohasidagi tadqiqotning mutlaqo yangi sohasi hisoblanadi. Tabiatdagi fraktallar shunchalik murakkab va tartibsizki, ularni klassik geometriya shakllari yordamida modellashtirish imkonsiz. Fraktallar nazariyasini tadqiq qilishda matematik jihatlarini tahlil qilish, shuningdek, tabiiy jarayonlar va hodisalarni fraktallar nazariyasi g'oyalaridan foydalanib tavsiflash usullariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa fraktallarning tenglamalarini qurishda, kompyuter grafikasi usullari va tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Shuning bilan birga murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni geometrik modellari va algoritmlarini, hamda ularni vizuallashtirish usullarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Eron, Iroq, Turkiya, BAA, Qozog'iston va boshqa davlatlarda fraktal geometrik shakllardan shaharsozlik, yengil sanoat dizaynida foydalanish texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy masalalarini yechishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda jadal o'zgarib borayotgan me'morchilikning zamonaviy nazariyasi boshqa fan sohalarni ham o'ziga jalb qilmoqda. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, nochiziqli dinamika konsepsiyasi, matematikaning yangi tendensiyalari arxitekturani shakllantirishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi va shu bilan birga me'morchilikni tahlil qilish vositalarini kengaytiradi. Dizayn amaliyoti va arxitektura nazariyasida fraktal geometriya yordamida yondashuv katta evristik salohiyatga ega, biroq u bir qator hal etilmagan muammolarga ham ega. Xususan, yangi ilmiy bilimlarni arxitektura faniga moslashtirish muammosi mavjud. Fraktal geometriya nazariyasiga asoslangan usul dunyoning ko'plab mamlakatlarida turli tadqiqotchilar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Hozirgi kunda bu yo'nalishda ilk qadamlar qo'yilgan, shuning uchun o'tgan davrlar me'morchiligini o'rganish, fraktal yondashuvlarni ishlab chiqish va takomillashtirish me'morchilik nazariyasining dolzarb vazifasi hisoblanadi. Murakkab me'morchilik obyektlarini loyihalashda fraktal geometriya usullaridan faol foydalanadi.

Respublikamizda qurilish me'morchilik tarmog'ini yanada takomillashtirish, arxitektura hamda qurilish tashkilotlari va muassasalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash, sohaga raqamli texnologiyalarni ilg'or joriy etish maqsadida kompleks chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-6119-son farmonida, jumladan «shaharsozlik faoliyatini raqamlashtirish, tarmoqqa zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish»¹ ustivor vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, qurilish me'morchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari asosida qurilish me'morchilik obyektlarida zamonaviy loyihalarining geometrik modeli va dasturiy vositasini ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son «Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustivor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni modellashtirish muammolariga qator monografiyalar va jurnallarning maqolalari bag'ishlangan. B.B.Mandelbrot, M.Barnsley, C.Bovill, W.Lorenz, Wen Wang, James Harres, I.M.Rian, M.Sasson, Myung-Sik Lee, Yumei Dang, K.Falconer, S.Asayama, O'zgur Ediz, Gulen Chag'dar, S.S.Mirmorad, M.M.Taha, V.F.Kravchenko, V.K. Balxanov, A.Morozov, V.Volchuk va boshqalar fraktal geometriyaning sohasini kengaytirish uchun faol tarzda tadqiqotlar olib bormoqdalar, jumladan ular murakkab matematik va geometrik funksiyalar algoritmlaridan foydalangan holda, yangi me'moriy obyektlarni zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida amaliy loyihalashda qo'llamoqdalar.

Respublikamizda fraktallar nazariyasini rivojlantirish bo'yicha B.A.Bondarenko, Sh.A.Nazirov, Sh.A.Anarova, F.M.Nuraliyev, B.Xo'jayorov, X.N.Zaynidinov, Sh.A.Sadullayeva va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor.

Mazkur sohadagi tadqiqotlarning o'rganilganligi shuni ko'rsatadiki, faktal geometriyaga asoslangan me'moriy loyihaning kompyuter modelini raqamli modellashtirish texnologiyalari konseptual me'moriy loyiha orqali me'morlarga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Kompyuter tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan modellashtirish tizimlari dastlabki loyihalash bosqichida turli xil obyektlarni ishlab chiqish va muqobil me'moriy shakllarni izlashga hissa qo'shishi mumkin. Biroq, murakkab fraktal tuzilishlarni geometrik modellashtirishda, xususan R-funksiyalar usuli, L-tizimlar va iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) usullarini qurilish me'morchilik obyektlari uchun qo'llab, geometrik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF–6119-son Farmoni

almashtirishlar yordamida murakkab fraktal tuzilishga ega 2D va 3D shakllarni geometrik modellashtirish yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy – tadqiqot ishlar rejasining №Ф3-2019081212 «O'zbek milliy naqshlarida murakkab fraktal tuzilishlarni bayon etishni geometrik modellashtirish texnologiyasini ishlab chiqarish» (2020-2021) mavzusidagi loyiha ishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish-me'morchilikdagi murakkab fraktal tuzilishli 2D va 3D obyektlarni geometrik model va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Murakkab fraktal tuzilishli 2D va 3D geometrik obyektlarni vizuallashtirish usullari va ularni qurilish-me'morchilikda qo'llanishi bo'yicha qiyosiy tahlilni amalga oshirish;

IFS hamda geometrik almashtirishlar usullari asosida qurilish-me'morchilik obyektlaridagi fraktal tuzilishli fermalar konstruksiyalarini qurishning geometrik modellari va algoritmini ishlab chiqish;

analitik konstruksiyaviy R-funksiya usulini qo'llagan holda uch o'lchovli murakkab obyektlarni geometrik modellarini ishlab chiqish;

R-funksiya hamda L-tizimlar usullari asosida qurilish-me'morchilikka oid murakkab fraktal tuzilishli 3D obyektlarni vizuallashtirishning gibrid usuli va algoritmini ishlab chiqish;

qurilish-me'morchilikda uchraydigan murakkab fraktal tuzilishli 2D va 3D obyektlarni IFS, R-funksiya hamda L-tizimlari usullari asosida vizuallashtirishni avtomatlashtiruvchi dasturiy vositaning funksional-sxematik tuzilishini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qurilish-me'morchilik loyihalaridagi ikki va uch o'lchovli murakkab fraktal tuzilishli obyektlar qaralgan.

Tadqiqotning predmeti qurilish-me'morchilik obyektlarini tadqiq etish uchun geometrik modellar, rekursiv algoritmlar, R-funksiya, L-tizimlar, iteratsion funksiyalar tizimi usullari va kompyuterlarda tajribalar o'tkazish uchun dasturiy vositadan iborat.

Tadqiqotning usullari. Fraktallar nazariyasi, R-funksiya usuli, iteratsion funksiyalar tizimi, L-tizimlar usullari, kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlari, algoritmlash nazariyasi, dasturlash texnologiyasi, erishilgan natijalarni tahlil qilish va hisoblash mashinalarida ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

IFS hamda geometrik almashtirishlar usullari asosida qurilish-me'morchilik obyektlaridagi fraktal tuzilishli fermalar konstruksiyalarini qurishning geometrik modellari va algoritmi ishlab chiqilgan;

R-funksiya usulini qo'llagan holda murakkab tuzilishli uch o'lchovli obyektlarni geometrik modeli va algoritmi ishlab chiqilgan;

R-funksiya hamda L-tizimlar usullari asosida qurilish-me'morchilikka oid murakkab fraktal tuzilishli 3D obyektlarni vizuallashtirishning gibrud usuli va algoritmi ishlab chiqilgan;

qurilish-me'morchilikda uchraydigan murakkab fraktal tuzilishli 2D va 3D obyektlarni IFS, R-funksiya hamda L-tizimlari usullari asosida vizuallashtirishni avtomatlashtiruvchi dasturiy vositaning funksional-sxematik tuzilishi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konstruksiyaviy R-funksiya hamda L-tizimlari usullari yordamida murakkab fraktal tuzilishli obyektlarning geometrik modellari ishlab chiqilgan;

iteratsion funksiyalar tizimi hamda kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlari asosida murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni vizuallashtirish uchun algoritmlar ishlab chiqilgan;

qurilish-me'morchilikda uchraydigan murakkab fraktal tuzilishli 2D va 3D obyektlarni geometrik modellarini vizuallashtirish uchun dasturiy vosita ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni ishlab chiqishda iteratsion funksiyalar tizimi, R-funksiya usuli, L-tizimlar usuli, analitik geometriya va kompyuter grafikasi qoidalariga mosligi, taklif etilgan algoritmlarni ishlab chiqishda murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni analitik usullarda geometrik modellashtirishning matematik apparatining to'g'ri qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati murakkab fraktal tuzilishli shakllarni analitik-konstruktiv usullar hamda kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlari asosida geometrik modellashtirishning nazariy asoslarining istiqbolli rivojlanishiga iteratsion funksiyalar tizimi, R-funksiya va L-tizimlar usullarining takomillashtirilganligi va algoritmlari ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati murakkab fraktallarning tuzilishiga bog'liq masalalarni hal etish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositalarni 2D va 3D fraktallarni vizuallashtirish va ishlab chiqarishning me'morchilik obyektlarini loyihalash sohalariga joriy qilishga qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya doirasida murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni iteratsion funksiyalar tizimi, R-funksiya va L-tizimlar usullar integratsiyasi orqali ishlab chiqilgan gibrud usul yordamida geometrik modellashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy vosita asosida:

Iteratsion funksiyalar tizimi, kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlari, murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni geometrik modellashtirish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita «IBRAGIMOV DESIGN STUDIO» MCHJga joriy qilingan (Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 33-8/7615-son ma'lumotnomasi). Natijada qurilish-me'morchilik ishlari jarayonlari uchun murakkab fraktal tuzilishdagi obyektlarni loyihalashni

avtomatlashtirish va ishlab chiqarishni 8%–11%ga oshirish hamda qo‘l mehnatining kamayishi hisobiga xarajatlarni 5-9%ga kamaytirish imkonini bergan.

Kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlari hamda fraktal tuzilishli obyektlarni geometrik modellashtirish usullari va algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy vosita «NURLAN-PROJECT» XKga joriy qilingan (Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 33-8/7615-son ma’lumotnomasi). Natijada mahsulotning sifatini va xaridor talabidagi naqsh shaklining rangini keng qamrovda o‘zgartirish orqali mahsulotga bozor talabini 1.1-1.2 martaga oshirish imkonini bergan.

Analitik konstruksiyaviy R-funksiya usuli hamda L-tizimlari usulini integratsiyalashtirgan holda fraktal tuzilishlarni geometrik modellashtirishning modifikasion algoritmlar majmui bazasiga ega bo‘lgan dasturiy vosita «ART DECO DESIGN» MCHJda joriy qilingan (Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 33-8/7615-son ma’lumotnomasi). Natijada bino va inshootlarning jihozlanishi hamda loyihalashda foydalaniladigan murakkab fraktal tuzilishlarini yaratish uchun ketadigan vaqtni o‘rtacha 10% ga qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan 2 ta xorijiy jurnallarda va 5 ta respublika jurnallarda chop etilgan hamda 4 ta EHM uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Fraktallarni qurish usullari va me’morchilikda qo‘llash holatining tahlili**» nomli birinchi bobida, fraktal geometriyaning asosiy tushunchalari, fraktal shakllarni qurish usullarining hozirgi holati hamda ularni qo‘llanilish sohasini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, fraktal tushunchasining paydo bo‘lish tarixi, fraktallarning ta’riflari, fraktallarning o‘ziga xos xususiyatlari va fraktallarga doir bo‘lgan umumiy tushunchalar izohlangan va tahlil qilingan, shuningdek, muammoning dolzarbligi aniqlangan. Qurilish me’morchilikda

murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni qurish usullari bo'yicha xorijiy davlatlar va respublikamizda olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari atroflicha tahlil qilingan, hamda fraktallar nazariyasining asosiy tushunchalari, fraktallarni qurish usullarining hozirgi holati, ularning me'morchilikda qo'llash amaliyoti o'rganilgan, fraktallarning o'ziga xos xususiyatlari hamda fraktallarga doir bo'lgan umumiy tushunchalar bayon etilgan va tadqiqot ishi masalasining qo'yilishi keltirilgan. Fraktallarning turlari va sinflarga bo'linishlariga asosan fraktallarni qurish usullari tasniflangan. Fraktallarning fan va texnika sohalarida jumladan, matematikada, fizikada, kompyuter grafikasida, yengil sanoatda, elektronikada, astrofizikada, biologiyada, materialshunoslikda, tibbiyotda qo'llanilishi o'rganilgan, fraktal shakllarni qurish me'morchilikda qo'llash bo'yicha aniq yechimlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**IFS usuli asosida fraktal tuzilishli ferma konstruksiyalarini geometrik modellarishtirish**» deb nomlangan ikkinchi bobida yangi geometrik tizimlarni joriy etish maqsadida fraktal geometriya tushunchalarini qurilish sohasidagi strukturaviy fermalarni loyihalashda qo'llash taklif qilingan. IFS usuli qoidalarga asoslangan holda ferma tuzilmalarini geometrik modellari ishlab chiqilgan.

Matematikaning qismi hisoblangan geometrik shakllar va ularning asosiy tushunchalaridan foydalangan holda yangi ko'rinishidagi fraktallarni qurish uchun geometrik modellar va rekursiv algoritmlar ishlab chiqilgan.

IFS o'ziga o'xshash fraktallarni ishlab chiqish uchun 1-rasmda ko'rsatilgandek, Hutchinson operatori yordamida rekursiv ishlaydi:



1-rasm. IFS ning Hutchinson operatori funksiyasidan foydalangan holda ko'rsatilgan sxematik diagramma

Cheklangan n sonli takrorlanishlar quyidagi natija (1) ga olib keldi:

$$A_n = \bigcup_{i=1}^m f_i(A_{n-1}). \quad (1)$$

Shuning uchun, IFS xususiyatlariga asoslanib, f_i affin almashtirishlarining ahamiyati seziladi, ular aslida 'A' attraktorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Affin shartli almashtirishlar: affin shartli almashtirishlari f - bu ko'chirish, aylantirish, masshtablash va akslantirishning kombinatsiyasi bo'lgan chiziqli almashtirishdir. Affin shartli almashinishlarining tekislikdagi (2) tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$f = T(x) + b, \quad (2)$$

bu yerda 'T' - chiziqli transformasiya ('n × n' matrisa bilan ifodalanadi) va 'b'-vektor. XY Yevklid tekisligida ikki o'lchovli affin almashtirishining standart matrisa shakli quyidagicha ifodalanadi:


$$f = [W]\{x\} + \{\delta\} = \begin{bmatrix} w_{11} & w_{12} \\ w_{21} & w_{22} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x \\ y \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} \delta_x \\ \delta_y \end{bmatrix}, \quad (3)$$

Agar konvertasiya masshtablash, akslantirish, aylanish va siljishdan iborat bo'lsa, (3) - formulani quyidagicha qayta yozish mumkin:

$$f = \lambda [\mu][r]\{x\} + \{\delta\} = \lambda \begin{bmatrix} \mu_1 & 0 \\ 0 & \mu_2 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \cos \theta & -\sin \theta \\ \sin \theta & \cos \theta \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x \\ y \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} \delta_x \\ \delta_y \end{bmatrix}$$

Bu yerda λ -affin almashtirishlarining masshtablash koeffitsiyenti, $\mu_1 = -1$ va $\mu_2 = 1$, y o'qi bo'ylab, $\mu_1 = 1$ va $\mu_2 = -1$, x o'qi bo'ylab akslantirishlar, θ -burilish burchagi, δ_x va δ_y – mos ravishda x o'qi va y o'qi bo'ylab siljish.

Geometrik fraktal shakllarni qurish: dastlabki geometrik shakl sifatida S_0 dan foydalanish va cheksiz miqdordagi iteratsiyadan so'ng, bunda har bir iteratsiya uchun, $i = 1, 2, \dots, m$ cheksiz miqdordagi shartli affin almashitirish f_i funksiyalari qo'llaniladi. Cheksiz miqdordagi o'ziga o'xshash kichik shakllar $S_1, S_2, \dots, S_n, \dots$ har biri asl shaklning qisqartirilgan nusxalaridan iborat (2-rasm).



2-rasm. a) Serpin uchburchagini masshtablash va affin almashinishi asosida qurish, b) Serpin uchburchagini qurishning konversiya ketma-ketligi

Hausdorff o'lchovi – o'ziga o'xshash fraktallarning fraktal o'lchovlarini baholash uchun eng mashhur bo'lgan matematik o'lchov. Barnsleyning masshtablash nazariyasiga asoslanib fraktalning Hausdorff o'lchovi usuli (4) siqilish omillariga bog'liq:

$$\sum_{i=1}^k \lambda_i^D = 1 \quad (4)$$

bu yerda λ_i - affin almashtirishlarining masshtablash koeffitsiyenti, k esa affin almashtirishlar soni. Agar $0 < \lambda < 1$ bo'lsa, u holda (4) tenglama yordamida quyidagi ifodani olamiz:

$$\lambda^D + \lambda^D + \lambda^D + \dots + \lambda^D = 1; \quad k > 1.$$

U holda $k \cdot \lambda^D = 1 \Rightarrow \lambda^D = 1/k.$

Shunday qilib,

$$D = \frac{\log(1/k)}{\log(\lambda)}. \quad (5)$$

Serpin uchburchagini (2-rasmga qarang) qurishning bu usulida IFS ning masshtablash koeffitsiyenti λ_i ning qiymati $1/2$ bo'lganda affin almashtirish f_i funksiyasi 1-rasmda ko'rsatilganidek ishlaydi. Shunday qilib, ' S_1 ' yangi shakli hosil bo'ladi, bu ' σ_1 ', ' σ_2 ' va ' σ_3 ' ning birlashmasi bo'lib, matematik tarzda quyidagicha ifodalanadi:

$$S_1 = \sigma_1 \cup \sigma_2 \cup \sigma_3 = f_1(S_0) \cup f_2(S_0) \cup f_3(S_0),$$

n -takrorlashda

$$S_n = f_1(S_{n-1}) \cup f_2(S_{n-1}) \cup f_3(S_{n-1}).$$

Demak,

$$S_0 \supset S_1 \supset S_2 \supset S_3 \supset \dots \supset S_{n-1} \supset S_n \supset \dots,$$

Shunday qilib, ' S ' attraktor:

$$S = \bigcap_{i=1}^{\infty} S_i. \quad (6)$$

bu fraktal Serpin uchburchagining matematik ifodasi (6) hisoblanadi.

Serpin uchburchagini qurishda, quyidagi 2-rasmda ko'rsatilgan uchburchakning $k=3$ bo'lgan holdagi (f_1 , f_2 va f_3) affin almashtirishidan iborat quyidagi IFS funksiyasi qo'llaniladi.

$$f_i = \lambda_i \begin{bmatrix} \mu_1 & 0 \\ 0 & \mu_2 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \cos \theta & -\sin \theta \\ \sin \theta & \cos \theta \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x \\ y \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} \delta_x \\ \delta_y \end{bmatrix}; \quad i = 1 \text{ dan } 3 \text{ gacha}$$

(5) tenglamaga asoslanib, agar Serpin uchburchagining Hausdorff o'lchovi D bo'lsa, u holda $\lambda_1^D + \lambda_2^D + \lambda_3^D = 1$, bu yerda. $\lambda_1 = \lambda_2 = \lambda_3 = \frac{1}{2}$

Shuning uchun quyidagi $\left(\frac{1}{2}\right)^D + \left(\frac{1}{2}\right)^D + \left(\frac{1}{2}\right)^D = 3 \cdot \left(\frac{1}{2}\right)^D = 1$ ifoda orqali


Hausdorff fraktal o'lchovi D topiladi:

$$D = \frac{\log(1/3)}{\log(1/2)} \approx 1.585.$$

Serpin uchburchagini qurishda funktsiya parametrlari qiymati

IFS funksiyalar	Masshtablash	Akslantirish		Aylantirish	Almashtirish	
		μ_1	μ_2		δ_x	δ_y
f	λ	μ_1	μ_2	θ	δ_x	δ_y
f_1	1/2	1	1	0°	0	0
f_2	1/2	1	1	0°	2L	0
f_3	1/2	1	1	0°	L	L/2

Baltimor fraktali. Oldingi fraktallar tenglamasini qurishda ishlatilgan usulga asoslangan Baltimor fraktali f_1 va f_2 affin almashtirishlari yordamida har bir yangi iteratsiyada oldingi shunga o'xshash shaklning ikkita qisqartmasini birlashtirib quriladi (3-rasm). Boshqa fraktallardan farqli o'laroq, Baltimor fraktalining asl ' B_0 ' shakli uchburchak bo'lib, uning yuqori qismini asosiy chiziqning o'rtasiga bog'laydigan qo'shimcha vertikal chiziq mavjud (3-rasm).



3-rasm. Baltimor fraktalini qurish: a) masshtablash va affin almashtirilishi, b) birlashma ketma-ketligi

Baltimor fraktalining ' B ' attraktori shakli va unga mos keladigan affin almashtirishlari quyidagicha (7) ifodalanishi mumkin:

$$B = \bigcap_{i=1}^{\infty} B_i. \quad (7)$$

bu yerda $B_1 = b_1 \cup b_2 = f_1(B_0) \cup f_2(B_0)$ shuningdek $B_n = f_1(B_{n-1}) \cup f_2(B_{n-1})$, u holda $B_0 \supset B_1 \supset B_2 \supset B_3 \supset \dots \supset B_{n-1} \supset B_n \supset \dots$ affin almashtirishi,

$$f_i = \lambda_i \begin{bmatrix} \mu_1 & 0 \\ 0 & \mu_2 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} \cos \theta & -\sin \theta \\ \sin \theta & \cos \theta \end{bmatrix} \begin{bmatrix} x \\ y \end{bmatrix} + \begin{bmatrix} \delta_x \\ \delta_y \end{bmatrix}; \quad i = 1 \text{ dan } 2 \text{ gacha}$$

Agar Baltimor fraktal shaklidagi $\left(\frac{1}{2}\right)^D + \left(\frac{1}{2}\right)^D = 2 \cdot \left(\frac{1}{2}\right)^D = 1$ bo'lsa, u holda

Hausdorff fraktal o'lchovi: $D=1$


Ya'ni cheksiz takrorlashda Baltimor fraktal (nuqta chiziqsiz) bir o'lchovli chiziqqa aylanadi.

2-jadval.

Baltimor fraktalini qurishda funksiya parametrlari qiymati

IFS funksiyalar	Masshtablash	Akslantirish		Aylantirish	Almashtirish	
		μ_1	μ_2		δ_x	δ_y
f	λ	μ_1	μ_2	θ	δ_x	δ_y
f_1	1/2	1	1	0°	0	0
f_2	1/2	1	1	0°	2L	0

Yuqoridagi loyiha mulohazalari asosida barcha ferma konstruksiyalarining umumiy vazni hisoblab chiqilgan va taqqoslash 4-rasm, o'ngda ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, Hausdorff fraktal o'lchovi va fermalarning vazn farqi o'rtasida o'xshashlik mavjud. Bu tushunarli, chunki panjara qanchalik zich bo'lsa, ferma shunchalik og'irroq bo'ladi. Shu ma'noda, fraktal o'lchovlari ferma vaznining vizual o'lchovi sifatida talqin qilinishi mumkin.



4-rasm. Fermalarning Hausdorff fraktal o'lchovi (chapda) va umumiy massasini (o'ngda) qiyoslash

Dissertatsiyaning «Me'morchilik obyektlarida murakkab fraktal shakllarni geometrik modellashtirish usullarini takomillashtirish» deb nomlangan uchinchi bobida R-funksiya va L-tizimlar usullarini qo'llagan holda murakkab tuzilishli obyektlarning geometrik modellari ishlab chiqilgan. R-funksiya hamda L-tizimlar yordamida qurilish-me'morchilikka oid murakkab fraktal tuzilishli 3D obyektlarni vizuallashtirishning gibrud usuli va algoritmi ishlab chiqilgan. Shuningdek, geometrik almashtirishlarni qo'llagan holda fraktal ko'rinishdagi Menger gubkasi asosida binolarning fasad ko'rinishini vizuallashtirish uchun geometrik modellar va rekursiv algoritmlar ishlab chiqilgan.

Sharni quyidagi tayanch funksiya orqali ifodalaymiz:


$$f_4 = \left(R^2 - \left(x - \frac{a_1}{2} \right)^2 - \left(y - \frac{b_1}{2} \right)^2 - (z - c_1)^2 \right) \geq 0, \quad R = 0.5;$$

$$\omega_2 \equiv f_4 \geq 0.$$

Ω_1 murakkab geometrik obyekt (6(b)-rasm) quyidagi (9) mantiqiy formula yordamida hosil qilinadi:

$$\Omega_1 = (\omega \equiv \omega_1 \vee_0 \omega_2 \geq 0). \quad (9)$$

Uchinchi bosqichda silindr, shar va ellipsoidning fa'zoda joylashish holati (7(a)-rasm)ga qarab tayanch funksiyalar topiladi:



7-rasm. Shakllarning fa'zoda joylashish holati: a) Dekart koordinatalar tekisligida, b) Ω_2 murakkab geometrik obyekt

Ω_2 murakkab geometrik obyekt (7(b)-rasm) quyidagi (10) mantiqiy formula yordamida hosil qilinadi

$$\Omega_2 = (\omega_5 = \omega_3 \vee_0 \omega_4 \geq 0). \quad (10)$$

bu yerda,

$$f_5 = \left(r^2 - (x - a_2)^2 - (y - b_2)^2 \right) \geq 0, \quad r = 0,35; a_2 = 0,5; b_2 = 0,5; c_2 = 2,35.$$

$$\omega_3 = f_3 \wedge_0 f_5,$$

$$f_6 = \left(R^2 - (x - a_2)^2 - (y - b_2)^2 - (z - c_2)^2 \right) \geq 0,$$

$$f_7 = \left(1 - \frac{(x - a_2)^2}{d_1^2} - \frac{(y - b_2)^2}{d_2^2} - \frac{(z - c_2)^2}{d_3^2} \right) \geq 0, \quad d_1 = 0,25; d_2 = 0,25; d_3 = 1.$$

$$\omega_4 = f_6 \vee_0 f_7 \geq 0.$$

Keyingi qadamda hosil qilingan murakkab geometrik shakllardan L-tizimning geometrik elementlari sifatida foydalaniladi, ya'ni $\Omega_1 = J$, $\Omega_2 = K$ deb qabul qilinadi. Ushbu J va K elementlar ishtirokida quyidagi aksioma va qoida ishlab chiqildi.


Aksioma: $F J K / + - [] A B h " !$

1. Qoida: $A=J/(45)[+hh-B]/(90)[+hh-B]/(90)[+hh-B]/(90)[+hh-B]$

2. Qoida: $B="J+h-"AFF! " (0.7)K$

n – takrorlanishlar soni.


R-funksiya va L-tizimlari usullari kombinatsiyasi yordamida geometrik modellashtirilgan gumbazli bino loyihasining har bir takrorlanishdan so'ng shakllanish jarayoni 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. R-funksiya va L-tizimlar usullari kombinatsiyasi yordamida geometrik modellashtirilgan gumbazli bino loyihasi


Dissertatsiyaning «Murakkab fraktal tuzilishlarni geometrik modellashtirishning dasturiy vositasi» nomli to'rtinchi bobida yuqoridagi boblarda taklif etilgan va ishlab chiqilgan mavjud algoritmlar asosida dasturiy vosita yaratilgan va amaliy masalalarni yechishga qaratilgan, shuningdek, dasturiy vositaning asosiy interfeysi va funksional imkoniyatlari hamda murakkab ko'rinishdagi fraktal shakllarni vizuallashtirish algoritmlari keltirilgan.

R-funksiyalar, L-tizimlar va IFS usullariga asosan fraktal tuzilishli shakllarni ishlab chiquvchi dasturiy vositaning umumiy tuzilishi 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Dasturiy vositaning umumiy tuzilishi

R-funksiya va L-tizim usullari kombinatsiyasidan foydalangan holda murakkab fraktallarni vizuallashtirish algoritmi quyidagicha amalga oshiriladi (10-rasm).



10-rasm. R-funksiya va L-tizim usullari kombinatsiyasidan foydalangan holda murakkab fraktallarni vizuallashtirish algoritmlarining blok sxemasi

11-rasmda murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni analitik usullar yordamida vizuallashtiruvchi dasturiy vositaning interfeysi keltirilgan.



11-rasm. Dasturiy vositaning asosiy oynasi

Murakkab ko‘rinishdagi fraktal obyektlarni vizuallashtirishda Qt6, C++ va OpenGL dasturiy tillaridan foydalanildi. Yaratilgan «Fraktal me‘mor» dasturiy vositasi murakkab fraktallarni ishlab chiqish uchun tez vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Ushbu dasturning ustunlik tarafi shundaki dastur faqatgina ikki o‘lchovli fraktal shakllarni qurish bilan cheklanmasdan, qurilish me‘morchilik obyektlarining uch o‘lchovli murakkab fraktal shakllarini ham vizualizatsiya qilish hamda geometrik almashtirishlar orqali ko‘plab yangi shakllarni qurish imkonini beradi.

XULOSA

«Qurilish-me‘morchilik obyektlarining murakkab fraktal tuzilishlarini geometrik modellashtirish» mavzusida olib borilgan dissertatsiya ishining natijalari bo‘yicha quyidagi asosiy xulosalar taqdim etildi:

1. Fraktallar nazariyasining asosiy tushunchalari, fraktallarning kelib chiqishi, uning xususiyatlari, turlari va qo‘llanilish sohalari o‘rganildi va tadqiq qilindi. Natijada qurilish-me‘morchilik obyektlarida konstruksiyalarni ishlab chiqish hamda bino inshootlar tashqi ko‘rinishining murakkab tuzilishlarini loyihalash jarayonlarida qo‘llanilishi va iqtisodiy samara berishi aniqlandi.

2. Fraktallarning qurish usullari, ularni vizuallashtirish algoritmlari, qo‘llanilish jarayoni, fraktal o‘lchov tushunchasi va fraktal tuzilishga ega bo‘lgan obyektlarning fraktal o‘lchovini hisoblash usullari o‘rganildi va tadqiq qilindi. Iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) usuli nazariy asoslari hamda afzalliklari tahlil qilindi. Mazkur usul asosida qurilgan fraktal tuzilishli fermalar konstruksiyalarining geometrik modellari hamda hisoblangan fraktal o‘lchov qiymatlari fermalarning mustahkamlik darajasini qiyosiy tahlilini amalga oshirish imkonini berdi.

3. Murakkab fraktal tuzilishli obyektlarni R-funksiya va L-tizimlari usullari kombinatsiyasi yordamida qurilishning geometrik modellari va algoritmi ishlab

chiqildi. Ushbu gibridd usul hamda ishlab chiqilgan algoritm asosida murakkab fraktal tuzilishli spiralsimon va gumbazli me'moriy bino loyihalari vizuallashtirildi. Ishlab chiqilgan algoritm keng turdagi 3D fraktal tuzilishli murakkab geometrik shakllarni qurish uchun xizmat qiladi.

4. Iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) usulini qo'llab murakkab fraktal ko'rinishdagi shakllarni vizuallashtirish algoritmi ishlab chiqildi. Mazkur usul va algoritm Menger gubkasi fraktal shakli parametr qiymatlarini o'zgartirish orqali real vaqt rejimida yangi shakllarni vizuallashtirish imkonini berdi.

5. Ishlab chiqilgan geometrik modellar va algoritmlar asosida qurilish-me'morchilikdagi murakkab fraktal tuzilishli 2D va 3D obyektlarni vizuallashtirishni avtomatlashtiruvchi dasturiy vosita ishlab chiqildi. Ushbu dasturiy vositani qo'llash qurilish me'morchilikda ishlatiladigan ferma konstruksiya loyihalarining keng turlarini ishlab chiqish, mustahkamlik darajasini aniqlash, klassik va zamonaviy binolarning tashqi umumiy ko'rinishlarini vizuallashtirish uchun xizmat qiladi.

6. Ishlab chiqilgan geometrik modellar, algoritmlar va dasturiy vositalar «IBRAGIMOV DESIGN STUDIO» MCHJ, «NURLAN-PROJECT» XK va «ART DECO DESIGN» MCHJda joriy qilingan. Natijada qurilish-me'morchilik obyektlarini loyihalashni avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish hajmini 8%–11%ga oshirishga, mahsulot sifati va buyurtmachi talabidagi loyiha turlarini kengaytirish orqali mahsulotga bozor talabini 1.1-1.2 martaga oshirishga, qurilish-me'morchilik inshootlarni loyihalashga ketadigan umumiy vaqtni o'rtacha 10% ga qisqartirish imkonini berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

БЕРДИЕВ ГОЛИБ РАШИДОВИЧ

**ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ СЛОЖНЫХ
ФРАКТАЛЬНЫХ СТРУКТУР СТРОИТЕЛЬНО-АРХИТЕКТУРНЫХ
ОБЪЕКТОВ**

05.01.01 – Инженерная геометрия и компьютерная графика.
Аудио и видеотехнологии

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2022.2.PhD/T2821

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Садуллаева Шахло Азимбаевна
доктор физико-математических наук, доцент

Официальные оппоненты: Хамдамов Уткир Рахматиллаевич
доктор технических наук, доцент

Нуралиев Фарход Абдуганиевич
доктор физико-математических наук, доцент

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Защита диссертации состоится «26» мая 2023 г. в 14:00 часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 2/274). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70).

Автореферат диссертации разослан «11» мая 2023 года.
(протокол рассылки № 13 от «20» апреля 2023 г.).



М.М. Мусаев
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

Н.О. Рахимов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, доцент

Ш.А. Анарова
Председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире одним из преимуществ развития информационных технологий можно считать появление фрактальных объектов, изучение которых развивается и становится популярным в последние годы. Применение фрактальной геометрии в архитектуре — совершенно новая область инженерных исследований. Фракталы в природе настолько сложны и нерегулярны, что их невозможно смоделировать с помощью классической геометрии. При исследовании теории фракталов особое внимание уделяется анализу ее математических аспектов, а также методам описания природных процессов и явлений с использованием идей теории фракталов. Широко используются методы и системы компьютерной графики, особенно при построении фрактальных уравнений. При этом одной из важных задач является разработка геометрических моделей и алгоритмов объектов со сложной фрактальной структурой, а также методов их реализации. В развитых зарубежных странах в этой области, в том числе в США, Германии, Франции, Италии, Китае, Российской Федерации, Японии, Иране, Ираке, Турции, ОАЭ, Казахстане и других странах, использование фрактальных геометрических фигур в градостроительстве и использовании легкого промышленного дизайна является теоретическим и практическим аспектом развития техники. Решению этих вопросов уделяется большое внимание.

В мире современная теория архитектуры, которая стремительно меняется, привлекает и другие научные направления. Использование компьютерных технологий, концепция нелинейной динамики, новые направления в математике открывают новые возможности в формировании архитектуры и в то же время расширяют инструментарий архитектурного анализа. Подход фрактальной геометрии имеет большой эвристический потенциал в практике проектирования и теории архитектуры, но также имеет ряд нерешенных проблем. В частности, возникает проблема адаптации новых научных знаний к науке об архитектуре. Метод, основанный на теории фрактальной геометрии, вызывает большой интерес у различных исследователей во многих странах мира. Приводится начальный этап в проведении направления, в связи с чем изучение архитектуры прошлых периодов, разработка и совершенствование фрактальных подходов является актуальной задачей теории архитектуры. Активно использует методы фрактальной геометрии при проектировании сложных архитектурных объектов.

В нашей Республике реализуются комплексные меры по дальнейшему совершенствованию сети строительной архитектуры, формированию механизмов последовательного развития архитектурно-строительных органов и учреждений, обеспечению эффективности системы государственного управления, внедрению в сферу передовых цифровых технологий.

Указ Президента Республики Узбекистан от 27 ноября 2020 года №УП-6119 Об утверждении Стратегии модернизации, опережающего и инновационного развития строительной сети Республики Узбекистан на 2021-2025 годы в числе приоритетных задач определена «цифровизация градостроительной деятельности, внедрение в сеть современных информационных и коммуникационных технологий»¹. В реализации этих задач одним из важных вопросов является разработка геометрической модели и программного средства современных строительных объектов на основе современных информационных технологий с целью повышения эффективности реформ, реализуемых в области строительной архитектуры.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 27 апреля 2018 года №ПП-3682 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы практического внедрения инновационных идей, технологий и проектов», от 7 мая 2020 года №ПП-4708 «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики и другими нормативно-правовыми документами, касающимися данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Настоящее исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий «IV. Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий»

Степень изученности проблемы. Ряд монографий и журнальных статей посвященных проблемам моделирования объектов со сложной фрактальной структурой. Б.Б.Мандельброт, М.Барнсли, К.Бовилл, В.Лоренц, Вен Ван, Джеймс Харрис, И.М.Райан, М.Сассон, Мьюн-Сик Ли, Юмей Данг, К.Фальконер, С.Асаяма, Озгур Эдиз, Гюлен Чагдар, С.С.Мирморад, М.М.Таха, В.Ф.Кравченко, В.К.Балханов, А.Морозов, В.Волчук и другие активно проводили исследования в области фрактальной геометрии с целью расширения ее области применения, используя сложные математические и геометрические функции и алгоритмы, а также создавая новые памятные объекты при помощи современных компьютерных технологий для практической реализации.

В Республике обращает на себя внимание научная деятельность ученых Б.А.Бондаренко, Ш.А.Назирова, Ш.А.Анарова, Ф.М.Нуралиева, Б.Хужаёрова, Х.Н.Зайнидинова, Ш.А.Садуллаева и др. по развитию теории фракталов.

Изучение исследований в этой области показывает, что технологии цифрового моделирования компьютерной модели архитектурного проекта,

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 27 ноября 2020 года № ПП-6119 «Об утверждении Стратегии модернизации, опережающего и инновационного развития строительной сети Республики Узбекистан на 2021-2025 годы»

основанной на фрактальной геометрии, играют важную роль в оказании помощи архитекторам посредством концептуального архитектурного проекта. Однако для строительства архитектурных объектов, при геометрическом моделировании сложных фрактальных структур, в частности, геометрическом моделировании 2D и 3D фигур со сложной фрактальной структурой с помощью геометрических подстановок, с использованием методов R-функций, L-систем и систем итерационных функций (IFS) недостаточно изучено.

